


## NAVOIY VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019-yil yanvar-dekabr\*)

Navoiy viloyati bo'yicha 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 6 632,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018-yilning mos davriga nisbatan 7,4 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 740,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 132,6 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 5 891,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 104,9 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 953,9 mlrd. so'mni (2018-yilning mos davriga nisbatan 5,9 % ga kamaygan) tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan viloyat hududlari qatoriga Navoiy shahri, Karmana tumani, Qiziltepa tumani, Xatirchi tumani va Zarafshon shahrini misol keltirishimiz mumkin.


### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi, (mlrd. so'm)



\*-dastlabki ma'lumotlar

2018-yilning mos davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Navoiy shahri, Xatirchi tumani, Zarafshon shahri, Karmana tumani, Navbahor tumanlarida qayd etildi. Shuningdek, eng yuqori ko'rsatkich viloyatda Navoiy shahriga va aksincha eng past ko'rsatkich Uchquduq tumaniga to'g'ri kelmoqda.

### Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2018-yilning mos davriga nisbatan 32,6 % ga o'sdi va 740,5 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 11,2 % ulushiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, quyidagi jadvaldan ko'rinib turibdiki chakana tovar aylanmasi tahlil qilinganida shahar va tumanlar orasida eng yuqori chakana savdo tovar aylanmasiga ega bo'lgan hudud bu Navoiy shahri bo'lib, uning tovar aylanmasi 2 323,9 mlrd. so'm (2018-yilning mos davriga nisbatan 116,0 %) ni tashkil etadi.


## Yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi

	Jami (mlrd. so'm)	Jamidan:			
		Yirik korxonalar (mlrd. so'm)	Jamiga nisbatan ulushi, %	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari (mlrd. so'm)	Jamiga nisbatan ulushi, %
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>6 632,1</b>	<b>740,5</b>	<b>11,2</b>	<b>5 891,6</b>	<b>88,8</b>
Navoiy sh.	2 323,9	699,9	30,1	1 624,0	69,9
Zarafshon sh.	595,3	9,9	1,7	585,4	98,3
<i>tumanlar:</i>					
Karmana	1 000,5	2,5	0,2	998,0	99,8
Konimex	178,1	0,9	0,5	177,2	99,5
Qiziltepa	805,3	8,3	1,0	797,0	99,0
Navbahor	368,6	0,9	0,3	367,7	99,7
Nurota	258,7	2,7	1,1	256,0	98,9
Tomdi	48,7	0,3	0,6	48,4	99,4
Uchquduq	290,6	0,8	0,3	289,8	99,7
Xatirchi	762,4	14,3	1,9	748,1	98,1

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra 5 891,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 4,9 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 88,8 % ga teng kelmoqda.

Shuningdek, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining 2018-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati yuqori bo'lgan hududlar ichida Karmana, Uchquduq va Navbahor tumanlarini misol keltirishimiz mumkin.

## Chakana savdo tovar aylanmasida yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi, %



2019-yilning yanvar-dekabr oylari tahliliy natijalariga qaraganda, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi 88,8 % ni tashkil etib, mazkur ko'rsatkich bo'yicha shahar va tumanlar orasida Karmana (99,8%), Navbahor (99,7%), Uchquduq (99,7%), Konimex (99,5%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 11,2 % ni tashkil etib, eng katta ulush asosan Navoiy shahrida (30,1 %), Xatirchi tumanida (1,9 %) va Zarafshon shahri (1,7 %) da kuzatilgan.

Quyidagi diagrammadan ko'rinib turibdiki, mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2019-yil yanvar-dekabr oylarida 6 594,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2018-yilning mos davriga nisbatan 99,7 foizdan 99,4 foizga kamaydi.

## Mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmi, (mlrd. so'm)

	Jami	Nodavlat mulki	Davlat mulki
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>6 632,1</b>	<b>6 594,8</b>	<b>37,3</b>
Navoiy sh.	2 323,9	2 286,8	37,1
Zarafshon sh.	595,3	595,3	-
<i>tumanlar:</i>			
Karmana	1 000,5	1 000,3	0,2
Konimex	178,1	178,1	-
Qiziltepa	805,3	805,3	-
Navbahor	368,6	368,6	-
Nurota	258,7	258,7	-
Tomdi	48,7	48,7	-
Uchquduq	290,6	290,6	-
Xatirchi	762,4	762,4	-

## Mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi ulushi, %



Xuddi shuningdek, mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2019-yil yanvar-dekabr oylarida 37,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2018-yilning mos davriga nisbatan 0,3 foizdan 0,6 foizga ko'paydi.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Navoiy shahri (35,0 foiz), Karmana tumani (15,1 foiz), Qiziltepa tumani (12,1 foiz), Xatirchi tumani (11,5 foiz), va Zarafshon shahri (9,0 foiz) chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

### Chakana savdo tovar aylanmasida viloyat hududlarining ulushi, %



Jumladan, 2019-yilning yanvar-dekabr oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,4 % ni tashkil etib, 158,2 mlrd. soʻmga yetdi yoki 2018-yilning mos davriga nisbatan 1,0 % oʻsishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 92,8 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari ulushiga toʻgʻri kelmoqda.

### Viloyatda yirik umumiy ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi hajmi

	Jami (mlrd. soʻm)	2018-yilning mos davriga nisbatan, %	Yirik korxonalar		
			Hajmi (mlrd. soʻm)	2018-yil- ning mos davriga nisbatan, %	Jamiga nisbatan ulushi, %
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>158,2</b>	<b>101,0</b>	<b>11,3</b>	<b>63,8</b>	<b>7,2</b>
Navoiy sh.	59,5	94,5	11,2	64,8	18,8
Zarafshon sh.	19,1	107,0	-	-	-
<i>tumanlar:</i>					
Karmana	29,3	106,3	0,1	102,7	0,5
Konimex	3,3	102,8	-	-	-
Qiziltepa	14,2	104,7	-	-	-
Navbahor	5,5	105,3	-	-	-
Nurota	4,1	99,8	-	-	-
Tomdi	1,6	104,4	-	-	-
Uchquduq	6,4	103,1	-	-	-
Xatirchi	15,2	105,9	-	-	-


Shuningdek, ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining savdo aylanmasi 11,3 mlrd. soʻmni (2018-yilning mos davriga nisbatan 36,2 % ga kamaygan), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining savdo aylanmasi 146,9 mlrd. soʻmni (2018-yilning mos davriga nisbatan 5,8 % ga koʻpaygan) tashkil etdi.

### Viloyatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik umumiy ovqatlanish sub'ektlarining savdo aylanmasi hajmi

	Jami (mlrd.soʻm)	2018-yil- ning mos davriga nisbatan, %	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari		
			Hajmi (mlrd. soʻm)	2018-yilning mos davriga nisbatan, %	Jamiga nisbatan ulushi, %
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>158,2</b>	<b>101,0</b>	<b>146,9</b>	<b>105,8</b>	<b>92,8</b>
Navoiy sh.	59,5	94,5	48,3	105,7	81,2
Zarafshon sh.	19,1	107,0	19,1	107,0	100,0
<i>tumanlar:</i>					
Karmana	29,3	106,3	29,2	106,3	99,5
Konimex	3,3	102,8	3,3	102,8	100,0
Qiziltepa	14,2	104,7	14,2	105,1	100,0
Navbahor	5,5	105,3	5,5	106,0	100,0
Nurota	4,1	99,8	4,1	106,6	100,0
Tomdi	1,6	104,4	1,6	104,4	100,0
Uchquduq	6,4	103,1	6,4	103,1	100,0
Xatirchi	15,2	105,9	15,2	105,9	100,0



## Hududlar kesimida ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi hajmi (mlrd. so'm) va o'sish sur'atlari




## Mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi hajmi, (mlrd. so'm)

	Jami	Nodavlat mulki	Davlat mulki
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>158,2</b>	<b>147,1</b>	<b>11,1</b>
Navoiy sh.	59,5	48,5	11,0
Zarafshon sh.	19,1	19,1	-
<i>tumanlar:</i>			
Karmana	29,3	29,2	0,1
Konimex	3,3	3,3	-
Qiziltepa	14,2	14,2	-
Navbahor	5,5	5,5	-
Nurota	4,1	4,1	-
Tomdi	1,6	1,6	-
Uchquduq	6,4	6,4	-
Xatirchi	15,2	15,2	-

Quyidagi diagrammadan ko‘rinib turibdiki, mulkchilik shakli bo‘yicha ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2019-yil yanvar-dekabr oylarida 147,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich 2018-yilning mos davriga nisbatan 96,3 foizdan 93,0 foizga kamaydi.

Xuddi shuningdek, mulkchilik shakli bo‘yicha ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2019-yil yanvar-dekabr oylarida 11,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich 2018-yilning mos davriga nisbatan 3,7 foizdan 7,0 foizga ko‘paydi.

### Mulkchilik shakli bo‘yicha ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasining ulushi, %




## NAVOIY VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019-yil yanvar-dekabr\*)

2019-yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 849,7 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018-yilning mos davriga nisbatan 14,1 foizga kamaydi. Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmiga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019-yil yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra 990,4 mlrd. so'mni, 2018-yilning mos davriga nisbatan 81,0 % ni tashkil qildi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 53,5 % ni tashkil qilmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasining tarkibida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari aylanmasining ulushi esa 46,5 % ni tashkil etdi.



Quyidagi jadval ma'lumotlari tahlili asosida viloyatda faqatgina Navoiy shahri, Karmana va Xatirchi tumanida yirik korxonalar tomonidan ulgurji savdo tovar aylanmasi mavjud bo'lib, qolgan 7 ta hududda asosan ulgurji savdo tovar aylanmasi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan amalga oshirilgan.

\*-dastlabki ma'lumotlar

Shuningdek, shahar va tumanlar orasida eng yuqori ulgurji savdo tovar aylanmasiga ega bo'lgan hudud bu Navoiy shahri bo'lib, uning tovar aylanmasi 1 289,3 mlrd. so'm (2018-yilning mos davriga nisbatan 84,6 %)ni tashkil etadi.


## Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining hajmi

	Jami (mlrd. so'm)	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari (mlrd. so'm)	Jamiga nisbatan ulushi, %	Yirik korxonalar (mlrd. so'm)	Jamiga nisbatan ulushi, %
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>1 849,7</b>	<b>859,3</b>	<b>46,5</b>	<b>990,4</b>	<b>53,5</b>
Navoiy sh.	1 289,3	300,1	23,3	989,2	76,7
Zarafshon sh.	45,5	45,5	100,0	-	-
<i>tumanlar:</i>					
Karmana	303,1	303,1	99,995	0,01	0,005
Konimex	8,6	8,6	100,0	-	-
Qiziltepa	57,3	57,3	100,0	-	-
Navbahor	61,5	61,5	100,0	-	-
Nurota	7,8	7,8	100,0	-	-
Tomdi	1,7	1,7	100,0	-	-
Uchquduq	10,9	10,9	100,0	-	-
Xatirchi	64,0	62,8	98,4	1,2	1,9

Quyidagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2019-yil yanvar-dekabr oylarida 1 848,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2018-yilning mos davriga nisbatan 99,952 foizdan 99,949 foizga kamaydi.

Xuddi shuningdek, mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2019-yil yanvar-dekabr oylarida 0,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2018-yilning mos davriga nisbatan 0,048 foizdan 0,051 foizga ko'paydi.

### Mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi ulushi, %




### Hududlar kesimida mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, (mlrd. so'm)

	Jami	Nodavlat mulki	Davlat mulki
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>1 849,7</b>	<b>1 848,8</b>	<b>0,9</b>
Navoiy sh.	1 289,3	1 289,3	-
Zarafshon sh.	45,5	45,5	-
<i>tumanlar:</i>			
Karmana	303,1	302,2	0,9
Konimex	8,6	8,6	-
Qiziltepa	57,3	57,3	-
Navbahor	61,5	61,5	-
Nurota	7,8	7,8	-

Tomdi	1,7	1,7	-
Uchquduq	10,9	10,9	-
Xatirchi	64,0	64,0	-

## Ulgurji savdo tovar aylanmasida viloyat hududlarining ulushi



Tahlil natijalariga ko'ra Navoiy viloyatida ulgurji savdo tovar aylanmasining asosini Navoiy shahridagi ulgurji savdo tovar aylanmasi tashkil qiladi va xuddi shuningdek, ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Navoiy shahri (69,7 foiz), Karmana tumani (16,4 foiz) va Xatirchi tumani (3,5 foiz) ulgurji savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va  
savdo statistikasi bo'limi**  
Tel.: (0871) 230-84-36